

## **PARTSELLYATSIYANING BADIY-ESTETIK VAZIFASI (ERKIN A'ZAM ASARLARI MISOLIDA)**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20830071>

**Toshxujayeva Shoiraxon G'aniyevna**

*Qo'qon davlat universteti dotsenti*

Badiiy nutq tuzilishining eng xarakterli xususiyatlaridan biri ekspressiv sintaksis hisoblanadi. Ekspressiv sintaksis usullarida nutq jarayonida gapni bo'laklash, gap sintaktik tarkibidagi muayyan qismlarni gapdan tashqariga chiqarish yoki muayyan qismni gapga tirkash natijasida yuzaga keladigan parsellyativ yoki ilova konstruktsiyalar yuzasidan jahon va o'zbek tilshunosliklarida ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Parsellyatsiya hodisasini hozirgi bolgar badiiy nasrida batafsil tadqiq etgan M. O. Stupkinaning qayd etishicha, parsellyativ qurilmalarning yozma nutqda yuzaga kelishi olimlar tomonidan ancha ilgari qayd etilgan. Xususan, bolgar tilshunosi I. Xadjav o'tgan asrning 30 yillarida shunday konstruktsiyalarni birinchilardan bo'lib tilga olgan. Uning asosiy e'tibori gapning asosiy tarkibidan "vaqtdan oldinroq" nuqta qo'yish yo'li bilan muayyan qismni uzib olish mumkinligiga qaratilgan. Ayni shu o'rinda M. O. Stupkina rus tilshunosi L.Y. Maksimovning yozma nutqda gapni bo'laklash hodisasini ifodalash uchun 1936 yilda "parsellyatsiya" termini qo'llaganligini, shuningdek, 50 yillarda A.S. Efremov ham bunday konstruktsiyalarni sintaktik me'yorlardan chekinish sifatida baholagani

holda bunday qurilmalar uchun "partsellyatsiya" terminini taklif etganligini aytadi.<sup>48</sup>

Parsellyativ konstruktsiyalarning mohiyati hamda tabiati xususida nafaqat o'zbek tilshunosligida, balki boshqa tilshunosliklarda ham haligacha aniq bir to'xtamga kelingani yo'q. Ayni paytda, parsellyativ konstruktsiyalar tabiatini o'rganish badiiy til tadqiqi bilan bog'liq muammolarni hal etishda ham zaruriy holat hisoblanadi. Bir gap doirasida aytilishi mumkin bo'lgan fikrning "bo'laklanib" ifodalanishi masalasi tilshunoslar diqqatini har doim o'ziga jalb etib kelgan, ammo o'zbek tilshunosligida bu hodisa boshqa hodisalar bilan, xususan, ilova konstruktsiyalar bilan aralash holda yoki aynan bir hil hodisa sifatida talqin

<sup>48</sup> Хайдаров Ш.М. Бадий матда парцеллятив конструкцияларнинг қўлланилиши. Филол.фанлари номзод. ...дисс. –Тошкент: 2011. – Б. 29.

qilingan. O'zbek tilshunosligida bevosita parsellyativ konstruksiyalarni o'rganishga bag'ishlangan dastlabki tadqiqot sifatida I.Toshaliyevning o'quv qo'llanmasini aytish mumkin<sup>49</sup>.

XX asrning o'rtalaridan boshlab parsellyativ konstruksiyalar F.Is'hoqov,<sup>50</sup> A.Abdullayev<sup>51</sup>, B. Maskopov<sup>52</sup>, M.Turopova<sup>53</sup> kabi olimlar tomonidan "ilova konstruksiyalar" nomi ostida o'rganilgan. Keyinchalik ba'zi tadqiqotchilar parsellyativ va ilova qurilmalarni farqlashga harakat qilgan bo'lsalar-da, asosan, sintaktik derivatsiya doirasi bilangina cheklanganlar.<sup>54</sup>

Badiiy matnga lingvopoetik yondashuv muammolarini tadqiq etgan tilshunoslar ham ushbu hodisaning o'rganilishi lingvopoetik jihatdan jiddiy ahamiyatga molik ekanligini alohida ta'kidlaydilar.<sup>55</sup>

Mazkur yo'nalish bo'yicha so'nggi tadqiqot sifatida "Badiiy matnda parsellyativ konstruksiyalarning qo'llanilishi" mavzusidagi nomzodlik ishi<sup>56</sup>ni ko'rsatish mumkin. Mazkur ish o'zbek tilshunosligida parsellyativ konstruksiyalar badiiy matn materiallari asosida lingvopoetik tadqiq qilinganligi bilan; parsellyativ konstruksiyalarning mohiyati, ularning ilova va boshqa konstruksiyalardan farqli belgilari badiiy matndan olingan misol bilan izohlanganligi jihatidan ahamiyati, bunday konstruksiyalarning og'zaki va badiiy nutqqa xoslanishi, voqelanishiga ko'ra tasnifi berilib, ular grammatik va lingvopoetik jihatdan tavsiflangan.

"Ma'lum bir gap strukturasi biror maqsad bilan o'zgartirish tarzidagi sintaktik-stilistik hodisa" (Sh.Haydarov) – parsellyatsiya natijasida mohiyatan bir sintaktik gap ikki kommunikativ jumlagacha aylanadi. Bir sodda sintaktik shaklda ifodalangan fikr ikki kommunikativ shaklda ifodalanadi. Professor N.Mahmudov mazkur nomutanosiblikning zamirida til vositalarining ortiqchaligi tamoyili yotadi, deya quyidagi fikrlarni bayon qiladi: "Ortiqchalik prinsipining mohiyatiga ko'ra

<sup>49</sup> Тошалиев И. Ҳозирги ўзбек тили. Синтаксис. Синтактик ва синтагматик қайта бўлиниш. Парцелляция. – Тошкент: Заг қалам, 2004. – Б.85-130.

<sup>50</sup> Исҳоқов Ф. Ҳозирги ўзбек тилида иловали конструкциялар//Адабиётшунослик ва тилшунослик масалалари. 2-китоб. – Тошкент: ЎзФА, 1961. – Б.285-289.

<sup>51</sup> Абдуллаев А. Илова кўчирма гапли конструкциялар // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1982.-№2. – Б.50-52.

<sup>52</sup> Маскапов Б. Присоединительные конструкции в узбекском языке: Автореф.дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1985. – С.20.

<sup>53</sup> Туропова М. Илова конструкциянинг бошқа синтактик конструкциялардан фарқи // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент,1980. -№1. – Б.5-56.

<sup>54</sup> Гаффоров А. Ҳозирги ўзбек тилида парцеллятив ва иловали қурилмаларнинг синтактик деривацияси: филол. фанлари.номзоди...дисс.автореф. – Самарқанд, 1997. – Б.26.

<sup>55</sup> Йўлдошев М. Бадий матннинг лингвopoetik тадқиқи: Филол.фанлари д.ри...дис. –Тошкент, 2009. – Б.267.

<sup>56</sup> Хайдаров Ш.М. Бадий матнда парцеллятив конструкцияларнинг қўлланилиши. Филол.фанлари номзод. ...дисс. автореф. –Тошкент, 2011. – Б. 26.

sodda mazmun murakkab forma orqali ifodalanadi. Albatta, bu holat mantiqiy ravishda gapda semantik-sintaktik assimetriyani yuzaga keltiradi".<sup>57</sup>

Parsellyatsiyaning asosiy gapdan faqat nuqta bilan emas, balki ikki nuqta, nuqtali vergul, vergul, tire, undov, so'roq belgisi kabi punktuatsion belgilar bilan ham ajratilishi mumkinligi ba'zi adabiyotlarda ta'kidlanadi<sup>58</sup>. Alohida qayd etish lozimki, final tinish belgilari (nuqta, ko'p nuqta, undov belgisi, so'roq//undov, undov//so'roq belgisi) ajratilgandagina parsellyatsiyaning mohiyatiga mos bo'ladi.

A. A. Vinogradov oldindan o'ylanganlik – o'ylanmaganlik parsellyativ va ilova konstruksiyalarni farqlashdagi asosiy mezon ekanligini, ya'ni so'zlovchi oldindan o'ylamasdan, nutq oqimi davomida o'z gapiga qo'shimcha tarzida aytgan qismlar ilova konstruksiyalar, so'zlovchi oldindan o'ylab, atayin o'z gapidan keyin keltirgan birliklar parsellyat-konstruksiyalar, deydi va ilovaning og'zaki nutqqa, parsellyatsiyaning esa yozma nutqqa xosligini ta'kidlaydi<sup>59</sup>.

Parsellyatsiyaning o'zbek tilidagi badiiy matn doirasida semantik-sintaktik va lingvopoetik aspektida o'rganish har tomonlama nazariy va amaliy ahamiyatga molik hisoblanadi. Su sababdan ushbu hodisani Erkin A'zam asarlari misolida tahlil qilish orqali parsellyatsiyaga xos yangi xususiyatlar yuzaga chiqadi.

Yozuvchi asarlarida kuzatiladigan parsellyatlarni struktur-semantik jihatdan

- 1) gap bo'laklari shaklidagi;
- 2) gap shaklidagi;
- 3) mikromatn shaklidagi partsellyatlar tarzida 3 guruhga bo'lib tavsiflash

mumkin.

Parsellyativ konstruksiyalar tabiatini o'rganish jarayonida sintaktik jihatdan muayyan gap bo'lagi vazifasida kelgan "uzindi" bo'laklarning alohida ekspressiv maqsadlarda qo'llanilganligi kuzatildi:

**Erkin A'zam asarlarida ega parsellyatsiyasi.** Ma'lumki, parsellyat sifatida ajratilgan bo'lak muallifning estetik niyati ro'yobiga xizmat qiladi. Bunda, asosan, gapning bosh bo'laklari - ega sintaktik maqomidagi bo'lak muayyan gap tarkibidan uzib olinganda, o'sha bo'lak aynan ta'kidlanayotgan bo'ladi. Misol uchun, *Oqibat – pinhona umidlar bilan yura-yura, dog'da qolib ketadi. Bechora Janob!* ("Navoiyni o'qigan bolalar") Ushbu parsellyatli konstruksiyani deparsellyatsiyalansa, *Bechora*

<sup>57</sup> Махмудов Н.М. Ўзбек тилидаги содда гапларда семантик-синтактик ассиметрия. – Тошкент: Ўқитувчи, 1984. – Б.13.

<sup>58</sup> Турсунов Б. Парцеллирование придаточные предложения в наменском И узбекском языках: Автореф. Дис. ...канд. Филол. Наук. – Л.,1975. – С.

<sup>59</sup> Виноградов А. А. К вопросу о дифференциации явлений партселляции и динамического присоединения // Вопросы языкознания, – М. 1981. – С. 103

*Janob oqibat - pinhona umidlar bilan yura-yura dog'da qolib ketadi* shaklidagi gap yuzaga keladi. Mazkur gapda ega pozitsiyasidagi *Bechora Janob* so'zi parsellyat sifatida gapdan tashqariga chiqarilgan. Bunday semantik-struktur gap qurilishi orqali yozuvchi ish-harakat bajaruvchi ma'nosini ta'kidlash, ajratib ko'rsatish maqsadida egani gapdan tashqarida berish usulidan foydalangan. Yana: *Alomat chol. Antropolog. Aslingiz kimligini bir qarashdayoq aytib beradi!* ("Shovqin") Bu yerda ham muallif qahramon nutqidagi egaga boshqa gap bo'laklariga nisbatan kuchli urg'u berilganligi uchun ham alohida asosiy jumladan tashqarida berishni ma'qul ko'rgan. Quyidagi misollarda ham ushbu holatni ko'rish mumkin: *Enam o'tirgan xonaga boshlab kirdilar. Amma-xola-yu, qarindosh-urug', qo'ni-qo'shni ayollar. Bari galma-gal bo'ynimga osilib yig'i qildi.* ("Shovqin") Yuqoridagi parchalar orqali ega parsellyatsiyasi badiiy-estetik vosita sifatida qo'llanib, qahramon obrazini ajratish, hissiy ta'sirni kuchaytirish va o'quvchi diqqatini muhim semantik markazga jamlash vazifasini bajargan.

**Kesim parsellyatsiyasi.** Kesimning partsellyatsiyalanishi rus tilida ayrim holatlar, xususan, tarkibli kesimning yetakchi qismi asosiy gapda va ilovada uyushiq bo'lak maqomida bo'lgan holatlarda bahzan kuzatilishini ayrim tadqiqotlarchilar aytganlar.<sup>60</sup>

O'zbek tilshunosligida uyushiq kesimlar masalasining yangicha talqinlari ilmiy-tahlimiy amaliyotga kirdi.<sup>61</sup>

Sh.Haydarov o'z tadqiqotida kesim shaklidagi partsellyatlarni badiiy matnda qo'llanilishi haqida fikr bildirar ekan: "o'zbek tilida tarkibli yoki predikativlik (kesimlik) shakllari faqat bir marta qo'llangan uyushiq kesimlar doirasida kuzatilishi mumkin", degan fikrni bildiradi. Biroq Erkin A'zam asarlarida kesimning ham parsellyat sifatida gapdan tashqariga chiqarilishi asarning ekspressivligini oshirishini kuzatamiz: *Pakana indamadi. Hang-mang edi.* ("Pakananing oshiq ko'ngli"). Bu yerda ikkinchi kesim ibora shaklida parsellyatlashgan. Qahramonning ruhiy holatiga izoh sifatida "hang-mang edi" birikmasini asosiy jumladan tashqarida bermoqda.

**To'ldiruvchi parsellyatsiyasi.** Yozuvchi Erkin A'zam asarlarida to'diruvchilarni parsellyat sifatida jumladan tashqariga chiqarish juda keng kuzatiladi. Gohida to'ldiruvchi shakliy jihatdan o'zgarishsiz ifodalanadi. Misol: *Halaqit beryapsiz. Bizga! Safsar ikkalamizga!* ("Pakananing oshiq ko'ngli") Agar

<sup>60</sup> Ким Г.В. Бессоюзные присоединительные конструкции в современном русском литературном языке: Автореф.дисс....канд.филол.наук. – Алма-Ата.1965. – С.21-22.

<sup>61</sup> Махмудов Н. Она или таълими мазмунида узвийлик муамолари//Тил таълими босқичларида узвийликни таъминлашнинг илмий-амалий муаммолари. "Ўзбек тили" – доимий анжумани ўнинчи йиғини материаллари. – Тошкент: 2009. – Б.19.

ushbu jumla departsiyalanganda *Bizga, Safsar ikkalamizga, halaqit beryapsiz ko'rinishida bo'lar edi.* Bunda ajratilgan to'ldiruvchi ham parsilyativ konstruksiyaga aylantirilgan. Yoki: *Telbalangan odam joni halqumiga tiqilib chorbog'idan qochib chiqarkan, qo'rg'on darvozasida kimni uchratadi deng? Topolmaysiz. Azizani!* ("Pakananing oshiq ko'ngli") Mazkur gapdagi ritorik so'roq orqali o'quvchining diqqatini gapdagi to'ldiruvchiga – Azizaga qaratib olish bilan muallif ma'lum bir poetik maqsadni ko'zda tutgan. Ya'ni muallif ritorik so'roq va to'ldiruvchi parsellyatsiyasi orqali o'quvchi diqqatini aynan "Azizani!" so'ziga qaratishni maqsad qilgan. Shu orqali voqeaning kutilmaganligi va qahramon obrazining ahamiyati kuchaytirilib, badiiy nutqning emotsional-ekspressivligi oshirilgan.

**Aniqllovchi parsellyatsiyasi.** Aniqllovchi pozitsiyasidagi bo'lakning parsellyat sifatida gap tashqarisiga chiqarilishi ham yozuvchining badiiy niyatiga muvofiq amalga oshiriladi. Adib asarlari matnida aniqllovchi shaklidagi parsellyatlarga tez-tez murojaat qiladi. Bunda sifatlovchi-aniqllovchi ham, qaratqichli aniqllovchi ham parsellyat bo'la olgan. Masalan: *Shundoq eringiz bor-a! Istehdodli, olijanob!* ("Shovqin") Ushbu gapda yozuvchi *iste'dodli, olijanob* sifatlovchi aniqllovchisini parsellyatsiyalagan, ya'ni alohida jumla sifatida asosiy gapdan chiqarish orqali asardagi "er" obrazining ijobiy qirrasiga urg'u berish va bu bilan o'quvchida unga nisbatan ijobiy kayfiyat uyg'otishga erishgan. *Bu bolani hammamiz yaxshi bilamiz. Surxondaryodan. Ha, olis Surxondaryodan kelib ko'z o'ngimizda barcha imtihonlardan "besh" bahoda o'tdi. Ahlochi. Kamtarin. Odobli. Mehribon. Oqibatli.* ("Otoyining tug'ilgan yili"). Kamdan kam hollarda bir konstruksiyada gapning bir nechta bo'lagi yoki uyushiq bo'lagidagi har bir qism alohida-alohida parsellyatsiyalanadi. Erkin A'zam asarlari tilida esa bu hol juda ko'p uchraydi. Aniqllovchi shaklidagi parsellyatlar yozuvchi asarida hamisha faollashgan. Ayni paytda aniqllovchi-aniqlanmish munosabatining o'ziga xos zichligiga ko'ra aniqllovchi shaklidagi parsellyatning asosiy gap bilan semantik-grammatik aloqasi aniq bilinib turadi. Misol: *Xonaga alomat bir juvon kirib keladi. Ayni qiyomiga yetgan latofatli bir xonim. Boyvuchchagina. Kiborgina.* ("Shovqin") Ushbu jumlaning deparsellyatsiyalansa quyidagicha bo'lardi: *Ayni qiyomiga yetgan latofatli, boyvuchchagina, kiborgina bir xonim.* Adib ayni qahramondagi belgi-xususiyatlarni ta'kidlash, ajratib ko'rsatish maqsadida parsellyatsiya usulini tanlagan. Yozuvchining aynan shunday badiiy niyati, ya'ni o'quvchi diqqatini remaga qaratish uchun ham mazkur jumlaning parsellyativ shaklda tuzgan.

Galdagi misolga e'tibor bersak: *Ha, darvoqe, bunday nishon taqmagani odam bor ekan. Bittagina. Butun mamlakat bo'yicha yakka-yu yagona!* ("Shovqin"). Ko'rinib

turganidek, strukturasi atayin bo'laklarga ajratish orqali uslubiy jihatdan betaraf gapning ekspressiv variantini hosil qilish mumkin ekan. Agar ayni konstruktsiya *Ha, darvoqe bunday nishon taqmagani bittagina, butun mamlakat bo'yicha yakka-yu yagona odam bor ekan*, tarzida olinadigan bo'lsa, bu jumla hech qanday jihati bilan alohidalikka ega emas. Muayyan qahramonga muallifning oddiygina munosabati bildirilgan bo'lardi, xolos.

**Hol parsellyatsiyasi.** Hol shaklidagi parsellyat badiiy matnda yozuvchining poetik maqsadini yorqin namoyon qiluvchi sintaktik vositalar sifatida boshqa gap bo'laklariga nisbatan ancha-muncha faol. Bu holat, ayniqsa, yozuvchi Erkin A'zam ijodida ko'p uchraydi. Masalan, quyidagi konstruktsiyada: *Keyin ko'zlari yoshovsiragancha bir chetda mung'ayib qarab turdi. Motamsaro.* ("Shovqin"). Qahramon ruhiy holati tasviriga alohida urg'u berilgani uchun ham vaziyat holi parsellyatsiyalangan. Yana bir o'rinda uyushgan vaziyat holining har bir qismi alohida parsellyatsiyalangan: *Botir o'sha hovli darvozasi oldida turibdi. Yolg'iz. Sarxushroq.* ("Suv yoqalab"). Mazkur gap deparsellyatsiyalanganda quyidagicha tuzilishda bo'ladi: *Botir o'sha hovli darvozasi oldida yolg'iz, sarxushroq turibdi tarzida bo'ladi.* Adib qahramonidagi ham tashqi, ham ichki holatni aniq, ta'sirchan o'quvchiga yetkazish maqsadida rema sifatida vaziyat holini parsellyativ shaklda bergan. Parsellyat orqali qaysi bo'lak alohida ta'kid olishi lozimligi aniq ko'rsatib berilgan. Zero ta'kidlanuvchi bo'lakning gap tarkibidan tashqariga chiqarilishidan asosiy maqsad ham shunda.

Erkin A'zam asarlarida nafaqat gap bo'laklari, balki izohlovchi, umumlashtiruvchi bo'lak, kirish so'zlarning ham, so'z birikmalarining ham ma'lum konstruktsiyalarda parsellyatsiyalashtirilganiga guvoh bo'ldik. Buni esa yozuvchining o'ziga xos uslubini belgilovchi omillardan biri sifatida ko'rsatish mumkin. Masalan: *Mening xonamda bir kecha tunab ketgan ekanlar. Ro'molchalarini unutib!* ("Shovqin") Ko'rinib turganidek, jumla strukturasi atayin bo'laklarga ajratish orqali uslubiy jihatdan betaraf gapning ekspressiv varianti yuzaga kelgan. Agar ayni konstruktsiya *Mening xonamda bir kecha tunab, ro'molasini unutib ketgan ekanlar* tarzida bo'lsa bu gap o'quvchining hech qanday e'tiborini tortmasligi, qiziqalmasligi mumkin edi. Muayyan holatga, ayniqsa, "ro'molcha" detaliga qahramonning nisbatan farqli munosabatini sezish mumkin. Va ayni parsellyat tarzida ifodalangan detall "ro'molcha" qahramonlar yodiga shu bilan bog'liq mashhur sahna ko'rinishini solib, jamiyatdagi kasbini oddiy vaziyatda ko'rsatishga asos bo'ladi. *"Bunday erkin muomaladan ruhlanib Farhod behtiyor Otello qiyofasiga kirdi:*

- Ro'molcha-a! Qani mening ro'molcham?! Ro'molchamni topib ber, Dezdemon!

- *O'zingni bos, Otello! Ro'molchangni yaxshilab yuvib, dazmollab qo'rganman.* " ("Shovqin")

**Gap shaklidagi parsellyatlar.** Gap shaklidagi parsellyatlarga xos umumiy holatlar qo'shma gap tuzilishida ham davom etadi. Natijada qo'shma gap shaklidagi bir kommunikativ butunlik tarkibidagi sodda gaplar mustaqil kommunikativlarga aylanadi. Bunda asosiy qism temani, parsellyat esa remani tashkil etadi. Erkin A'zam asarlarida bog'langan, ergash gapli, bog'lovchisiz qo'shma gaplarning parsellyatsiyalanishi natijasida shakllangan gap shaklidagi parsellyatlarga yozuvchi badiiy tasvir maqsadi bilan tez-tez murojaat qilgan: *Boshqa safdoshlarini-ku qo'ya turaylik, shu chol meni keyin umr bo'yi tahqib etdi. Ammo o'shanda men bu ishini qayoqdan bilibman.* ("Shovqin")

Teng bog'lovchilarning barcha turlari, ya'ni zidlov, ayiruv, biriktiruv bog'lovchilari yordamida tuzilgan bog'langan qo'shma gaplarning parsellyatsiyasi o'zbek badiiy matnida, jumladan adib asarlari matnida ko'p kuzatiladi. Bunda zidlash, ayirish, biriktirish ma'nolarini ham alohida ta'kid bilan ifodalash maqsad qilinganligi seziladi. Misol uchun: *Hammasi dunyoga umid bilan keladi. Lekin mening boyagi so'zlarim qulog'ingda bo'lsin, bolam!* ("Shovqin") Bu misolning deparsiyalangan asliy shakli *Hammasi dunyoga umid bilan keladi, lekin mening boyagi so'zlarim qulog'ingda bo'lsin, bolam!* tarzidagi qo'shma gapdir. Parsellyatsiya natijasida ikki sodda gap - ikki kommunikativ birlik yuzaga kelgan, ikki tarkibiy fikr ta'kidi bilan bir qatorda bu fikrlar o'rnidagi zidlik ta'kidi ham yanada kuchaygan. Yana shuni aytish mumkinki, parsellyativ konstruksiyalar muallif nutqida ham, qahramonlar nutqida ham keng qo'llaniladi. Ayniqsa, yozuvchi asarlarida monologik va dialogik nutq shakllarida bunday tuzilmalar o'ziga xos ko'rinishda namoyon bo'lgan.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, parsellyatsiyani barcha yozuvchilar uslubiga bab-baravar xos usul sifatida baholab bo'lmaydi. U, tabiiyki, har bir yozuvchining individual uslubiga xos badiiy-individual, sintaktik hodisadir. Erkin A'zam asarlarida parsellyativ konstruksiyalarning turli ko'rinishlaridan juda ko'p o'rinlarda qo'llanilgan. Bunday konstruksiyalar yozuvchi uslubining o'ziga xos lingvopoetik ko'rsatkichlariga aylanib qolgan. Yozuvchi bunday ifoda usulidan foydalanib, qahramonlar tabiatini ranglarning boy palitrasida yoritadi, ularning nutqida partellyatsiyalangan strukturaning keng qamrovli manzarasini yaratadi.

Yozuvchi asarlari matnida ega, to'ldiruvchi, aniqlovchi, hol bo'laklari shaklidagi parsellyatlar turli tarzda namoyon bo'lgan, kesim shaklidagi parsellyat esa juda kam uchraydi. Negaki kesimning gapdagi mantiqiy grammatik markazdagi mavqei uning parsellyatsiyalanishiga monelik qiladi. Gapning zaruriy

konstruktiv bo'lagi bo'lmish to'ldiruvchining grammatik va semantik jihatdan juda ham serqirra bo'lgan holning parsellyatsiyalanishi yozuvchi asarlarida juda keng qo'llanilgan. Parsellyatsiya ekspressiv sintaksisning o'ziga xos usullaridan biri sifatida Erkin A'zam asarlarida muhim lingvopoetik qimmatga ega. Shuning uchun ham yozuvchining individual sintaksisini parsellyativ konstruksiyalarsiz tasavvur etish qiyin. Bunday konstruksiyalar adib uslubining o'ziga xos lingvopoetik ko'rsatkichlaridan biri deyishga to'la asos bor.